

KEKSALIK DAVRIGA XOS PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH USULLARI

Isakova Muazzam Tulkinozna

Psixologiya fanlari doktori (DCs)

Annotasiya: Ushbu maqolada keksalarning ruhiy salomatigiga oid psixologik omillar yoritib berilgan. Keksa yoshdagi insonlarga psixologik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish hamda ular bilan individual suhbatlar olib borish bo‘yicha ishlarni yo‘lga qo‘yish yo‘l –yo‘riqlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, kompetentsiya, yozuvchilik, shoirlik, musavvirlik, tadqiqotchilik, ijtimoiy fasilitatsiya.

Keksalik va nurniylik davrlarida inson ruhiyatiga xos yana bir muhim jihat – uning so‘z boyligi va gapirish mahoratini to’la ishlatishga intilishidir. Zero, ilgari ko‘pchilik o‘rtasida gapirishdan iymangan odam ham endi mahalla yig’inlarida gapiradigan, gapirganda ham ma’nili, asosli fikrlar beradigan bo‘lib qoladi. SHu bois bo’lsa kerak, mahalla faollari oldida gapirish, ular oldida ma’ruza qilishga qasd qilgan voiz yoki notiq ham ular oldida befarq tinglovchi emas, balki, savollar va fikrlar bilan uni chalg’itishi mumkinligini oldindan tasavvur qiladi. Demak, ushbu davrda insonning kommunikativ bilimdonligi – kompetentsiyasi ham ortib borishini ko‘rishimiz mumkin. Shu bois ham ularga ta’rif berganda, ko‘pincha “duogo’yim”, “nasihatgo’yim” iboralari tez-tez ishlatiladi.

Psixologik manbalarda aynan keksalik davrida ijodi gullab-yashnagan insonlar ham alohida ta’kidlanadi. Chunki yozuvchilik, shoirlik, musavvirlik, tadqiqotchilik layoqati bo‘lgan inson ayni shu davrda unda retrospektiv xotira kuchaygani bois ko‘rgan-kechirgan va his etgan narsa va xodisalar mohiyatini bayon etishda yanada usta va mahoratl bo‘lib qoladi. Masalan, jahon tarixiga nazar tashlasak, Mikelandjelo, Klod Mane, O. Renuar, S. Molter, B. Shou, V. Gete, I. Kantlarning eng nodir asarlari ularning keksalik davrlariga to’g’ri kelganligi ma’lum. Mashhur xind adibi va siyosiy arbobi Robingranad Tagor umrining oxirgi yillarida bir necha yo‘nalishlarda ijod qilgan – she’rlar, pylesalar, roman, povestlar, hikoyalar yozganki, ularni hozirgacha xalq ardoqlaydi. Ijod bilan shug’ullanuvchi keksa yoshli shaxslarning ijodiga xos narsa shuki, ularni ishlashga undagan narsalarning o’zi hayotiy bo‘lib, miyalarida o’ylagan, ijodi doirasidagi narsalarni tezroq hayotda, amaliyotga joriy etishga intiladilar. Bunday ijodkorlar yurtdoshlarimiz orasida ham juda ko‘p (Said Ahmad, Ozod Sharofiddinov, M. Davletshin, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va b.q.). Umuman, jahon miqyosida o’tkazilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aynan ijod bilan keksalik davrida ham shug’ullangan arboblar

orasida o’z sog’lig’idan xadeb noliyliganlari juda kam bo’lar ekan. Ular ana shu shijoat va onglilik, sog’lom turmush tarzini yaratish imkoniyatlari bilan eng avvalo psixologik jihatdan o’zlarini o’zlar parvarish qilishadi, o’zlariga g’amhurlik qilish ancha samarali kechar ekan.

Ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan keksalarning o’zgalarga ta’sir ko’rsatish mahoratining ortib borishi ham alohida ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning predmeti sifatida qaralishi mumkin.Buni psixologiyada ijtimoiy fasilitatsiya (inglizcha “facilitate” – yengillashtirish, ta’sir qilish so’zidan olingan) xodisasi deb ataladi. Hayotdagi mohiyati shundaki, bir inson boshqa bir inson va guruh davrasida o’zini shunday tutadiki, uning oqibatida o’zgalarga faqat ijobiy ta’sir ko’rsatadi, ular faoliyatining to’g’ri bo’lishi, samaradorligiga sababchi bo’ladi. Aynan shu ma’noda keksalarning oila muhitidagi fasilitatsion ta’sirlari oilaviy munosabatlarning barqarorligi va pozitiv tus olishiga imkon beradi.

Yana bir muhim jihat keksalikning jamiyatda asrlar davomida saqlab kelinayotgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning saqlanishi va avlodlarga etkazishdagi rollarini tadqiq etishdir. Biz o’tkazgan tadqiqotlarda «Siz har bir oilaning o’z urf-odatlari, an’analari va qadriyatları bo’lishi kerak, degan fikrga qo’shilasizmi?» degan savolimizga aksariyat respondentlar ijobiy baho berish bilan birga bu borada oilaning keksalari roli katta ekanligini ham e’tirof etishdi.

Ota-onalarning 95,1 va bolalarning 86,0 % ushbu jarayonlarda keksalar rolini belgilashdi.

Demak, bugungi o’smir uchun oilasi, ota-onasi va momolari referentlik pozitsiyasini yo’qotganlari yo’q. Bu narsa mafkuraviy nuqtai nazardan ahamiyatli bo’lib, ota-onalarning savodxonligi va oiladagi katta avlod vakillarining tarbiyaviy salohiyatini oshirilishi yoshlarda sog’lom ma’naviyat va ilg’or fikrlarning ongga singishiga ko’mak bo’lishi mumkin. Yuqoridagi fikrlarning barchasi keksalik davrining inson hayotidagi ham alohida shaxs uchun, ham jamiyat uchun foydasining ilmiy asosi borligini bildiradi. Umuman, Sharq xalqlarida qariyalarga bildiriladigan azaliy hurmat-ehtirom va g’amho’rlikning ham asl ma’nosи, mohiyati ham shundadir.

Farg’ona vodiysiga xos bo’lgan bolaga «Siz» deb, murojaat qilish qadriyatida ham oilaning kattalari jonbozlik ko’rsatishlari e’tirof etildi. Mafkuraviy o’zaro munosabatlarda bola uchun *referent - ahamiyatli*, obro’li kishilar guruhida ham ota-onalardan ko’ra ko’proq momolar va bobolarga ishonishlari yoshlarni anketa savollariga bergan javoblarida qayd etilgan. Bundan tashqari, o’smir yoshli bolalarning 55 foizi “Sirimni oshkor qilish” bandida yana “buvim, bobom” satrlarini belgilashgan. Demak, farzandlar, yosh avlod tarbiyasida O’zbekistonda

keksalarning o’rni sezilarli ekanligi tadqiqotda o’z tasdig’ini topdi. Shuningdek, keksalarga “Yana qayta imkoniyat bo’lsa, yoshlik davringizga qaytarmidingiz?”, deb berilgan savolga 47 nafar nuroniylarning 48 foizi inkor javobni, 53 foizi tasdiq javobni berdilar. Inkor javobni bergan respondentlardan “Nima uchun xohlamaysiz?”, deb berilgan javobga yurtimizda keksalarga berilayotgan e’tiborning tahsinga loyiqligi, nevara-chevara avlodlarga bosh bo’lib yurganliklari, ularni doimo duo qilib, shukrona qilib yurishlari, yoshlikda xo’p mehnat qilib, rohatini surishlik ham zarurligi uchun inkor qilganliklarini aytdilar. Tasdiq javobni bergan 53 foiz keksalar esa bugun mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni, qaratilayotgan e’tiborni e’tirof etib, yoshliklarida qiyinchilik, ocharchilik, 2-jahon urushidan keyingi davrlardagi yaziyat tufayli qiziqqan sohalari bo’yicha o’qib, tahsil olishning imkoniyati ham, iloji ham bo’lmaganligini evaziga bugungi davrdan foydalanib, boy berilgan imkoniyatlar o’rnini to’ldirishni, mamlakat mustaqilligi yo’lida zo’r kashfiyotlar yaratish umidi borligini e’tirof etdilar.

Shunday qilib, joriy yangi yilda o’tkazilajak barcha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda yoshlarning keksa avlod boshlagan barcha ezgu ishlarning davomchilari ekanligi, Vatan – yagona muqaddas go’sha ekanligi, O’zbekistonning buyuk kelajagi uchun qo’shgan hissa-yu, yosh avlodning uning kelajagi va gullab – yashnashi uchun mas’ulligi g’oyasini keng targ’ib qilish, bu tadbirlarni uyushtirish va o’tkazishda nafaqat murabbiylar, balki faol hamda iqtidorli talaba-o’quvchilarning salohiyatlaridan keng foydalanishga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. M.Isakova “Inson ruhiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari” (monografiya) Farg’ona davlat universiteti 2021 yil 5-yig’ilish baynnomasi. Farg’ona “Classic” nashriyoti. Farg’ona - 2021 yil.
2. М.Исакова Психологическое воздействие национальных традиций на психику человека, понесшего утрату близкого человека. Нукус давлат университети илмий хабарлар журнали. 2012 йил, 3-4-сон
3. M.Isakova Диний эътиқод шахс саломатлигининг омили сифатида Бухоро давлат universiteti. Psixologiya journal. Buxoro, 2020. 2-son
4. M.Isakova Samarqand davlat universiteti. Ilmiy axborotnoma. –Samarqand, 2020 yil, 4-son (122).
5. M.Isakova Insonning salomatlikka munosabati bilan uning individual-dinamik xususiyatlarining o’zaro bog’liqligi “Zamonaviy ta’lim”ilmiy jurnali. 2021 yil, 7-son. И

6. Saifiddinovna, S. N. (2024). The Essence of the Improvement of Innovative Activity in Higher Education Institutions. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(2), 441-445

